



HARBIY JISMONIY MADANIYAT VA SPORT MUTAXASSISLARINING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Abduraxmanov Azat Abdurashidovich

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti, jismoniy
tayyorgarlik va sport kafedrası katta o'qituvchisi, dotsent.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy jismoniy madaniyat va sport sohasidagi mutaxassislarning kasbiy faoliyati, ularning tayyorgarlik darajasini oshirish, bilim va malakasini doimiy ravishda rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Harbiy-amaliy sport turlari, ta'lim dasturlari, metodik yondashuvlar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *harbiy jismoniy madaniyat, sport mutaxassislari, kasbiy faoliyat, kreativlik, rivojlanish, innovatsiya.*

Kirish: Jahonda yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, harbiy xafsizlik masalalari harbiy kadrlar, xususan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning tayyorgarligini yuqori darajada ta'minlashni talab etmoqda. Bu esa nafaqat ularning jismoniy imkoniyatlari, balki psixologik chidamlilik va pedagogik mahoratlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Hozirgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, shuningdek, kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni shu bosqichi betakror o'ziga xos xususiyatga egaki, bunda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, tafakkur, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir soha mutaxassislari mustaqil, kreativ fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirishi muhimdir. Bu kelgusida vujudga kelishi ehtimoli mavjud muammolarni ijodiy ravishda hal qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bugun yuksak qobiliyatli kreativ fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan talab kun sayin kuchayib bormoqda. Shu jumladan harbiy jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari ham bugungi kun ijtimoiy taraqqiyotida harbiy jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarning alohida o'rni bor.

Ularning sport sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari va erishayotgan natijalari yildan-yilga o'sib bormoqda. Lekin, globallashuv jarayoni tezlashib borayotgan bir paytda, ushbu mutaxassislarning tafakkurini rivojlantirish dolzarb masaladir. Inson tafakkuri fikrlash qoliplarini yaratishga moyil. Qoliplar ikki omilga - insonning qabul qilishi va tajribasiga ko'ra hosil bo'ladi. Qoliplar hayotimizni muhofaza qilgan holda tezkor qarorlarni topishimiz uchun zarurdir. Ular tez, mustahkam holda yaratiladi va kundalik masalalarni yechimida ko'mak beradi. Biroq, qoliplar kreativlikni ifodalamaydi. Qoliplar asosida





fikrlovchi kishi hech qanday o'ziga xos narsa yarata olmaydi. Yangilik yaratish uchun miyaning odatiy faoliyatiga umuman mos tushmaydigan harakatlarni bajarish lozimdir.

Asosiy qism: 1. Harbiy jismoniy madaniyatning ahamiyati.

Harbiy jismoniy madaniyat - bu nafaqat tana tarbiyasi, balki harbiy xizmatchilarning umumiy ruhiy va jismoniy tayyorgarligini shakllantiruvchi muhim tizimdir. U quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Jismoniy tayyorgarlikning bazaviy elementlari;

Harbiy amaliy sport turlari (otish, qul va pichoq jangi, to'siqlar yo'lagini yengib o'tish, harbiy-amaliy suzish va h.k.);

Yuqori intizom va jamoada ishlash ko'nikmalari.

2. Mutaxassislarni tayyorlashdagi zamonaviy talablar.

Zamonaviy sharoitda harbiy jismoniy madaniyat va sport mutaxassislaridan quyidagi malakalar talab qilinadi;

Metodik qo'llanmalarni yaratish va joriy etish;

Axborot texnologiyalaridan foydalanish;

Jismoniy mashqlarni bajartirishni nazorat qilish;

Psixologik barqarorlikni ta'minlash.

3. Kasbiy faoliyatni rivojlantirish usullari.

Kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur:

Malaka oshirish kurslari:

Muntazam ravishda o'quv-seminarlar va treninglar tashkil etish.

Innovatsion texnologiyalar:

Simulyatorlar, smart-trenajyorlardan foydalanish.

Ilmiy tadqiqot ishlari:

Harbiy jismoniy madaniyat va sport sohasida tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar yozish.

Xalqaro tajriba almashish:

Xorijiy harbiy-sport maktablari bilan hamkorlik.

Sport sohasi zamonaviylashib borayotgan bir paytda, yangi paydo bo'layotgan talablar va muammolarni yechish uchun kreativ tafakkur uslubidan foydalanish muhimdir.

Sport mutaxassislarining fikrlashi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu birinchi navbatda sport tafakkurida aks etadi. Sport tafakkuri - bu sport faoliyati doirasida amalga oshiriladigan fikrlashdir. Sport tafakkurida fikrlash xususiyatlarining o'ziga xos kombinatsiyasi, ularning turli sharoitlarda barqaror namoyon bo'lishi jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur uslublarini xarakterlaydi.

Kreativ tafakkur uslubi – bu vaziyatni eski usul, yondashuv bilan yechish imkoniyati bo'lmagan holda, oldin qo'llanilmagan, innovatsion vositalardan foydalanib natijaga erishishdir. Kreativ fikrlashda yangi g'oyalar yaratishga qaratilgan faoliyat ustun turadi.



Amerikalik olim D.Veksler “Kreativlik fikming shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”, deb ta’rif beradi. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzi yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash, shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Kundalik hayot tarzi ko‘pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo‘ladi. A.Maslou ham kreativlikni barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof-muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat, deb hisoblagan.

Kreativ fikrlashda ijodkorlik asosiy vazifani bajaradi. Dj.Gilford ijodkorlikning to‘rtta xususiyatini ko‘rsatib o‘tgan:

- 1) originallik - uzoq birlashmalar ishlab chiqarish qobiliyati, g‘ayritabiiy javob;
- 2) semantik moslashuvchanlik - obyektning asosiy xususiyatlarini aniqlash va undan foydalanishning yangi usulini taklif qilish qobiliyati;
- 3) ijodiy moslashuvchanlik - stimulning shaklini ularda foydalanish uchun yangi belgilar va imkoniyatlarni ko‘rish uchun o‘zgartirish imkoniyati;
- 4) spontan moslashuvchanlik - adolatli vaziyatlarda turli g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati.

Sport mutaxassislarining kreativ fikrlashi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- nostandart qarorlar qabul qilish;
- oldin o‘zlashtirilmagan usullardan foydalanish;
- o‘ziga xos individual uslubni yaratish;
- jismoniy sifatlarni bajarish qoydasidan chiqqan holda namoyon etish;
- mashg‘ulot jarayonida yangi g‘oyalarni qo‘llash.

Sport mutaxassislari mashg‘ulot va musobaqalar paytida odatda murabbiy tomonidan o‘rgatilgan hamda jismoniy harakatlarni bajarish qoydalaridan kelib chiqib faoliyatini tashkil qiladi. Bunda qabul qilingan qarorlar ma’lum standartlar asosida yuzaga chiqadi. Bunday holatlar ko‘pincha turg‘unlikka sabab bo‘ladi. Ya’ni, sport mutaxassislari natijaga erishishdan ko‘ra qoydalarga asoslangan sport faoliyatini tashkil etishni tanlaydi. Kreativ fikrlashda nostandart qarorlar qabul qilish muvaffaqiyatni ta’minlovchi asosiy qismidir. Sport faoliyatidagi nostandart qarorlar – bu mavjud qoydalarni unutmagan holda, ixtiyoriy vaziyatdan chiqish maqsadida noizchil va hatto, mantiqsiz usullar orqali noodatiy, yangi, eng ma’qul qarorlarni izlab topa olishdir.

Sportchining individual uslubi - sportchi uchun muvaffaqiyatli natijaga erishishida maqsadga muvofiq bo‘lgan harakatlar usuli va yo‘lining o‘ziga xos alohida xususiyatlaridir. Individual uslubning tarkib topish shartlaridan biri sportchining xarakter-xususiyatlarini hisobga olishdir. Sportchi o‘z xarakteriga ko‘p jihatdan mos keladigan harakatni bajarish usullari va yo‘llari tanlaydi. Xarakterga eng mos keladigan harakatli usullar va yo‘llar



ko'pincha ixtiyorsiz va behuda javob berish formulalariga hamda harakat xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Sport mutaxassisida individual uslubining paydo bo'lishiga eng muhim shartlaridan biri uning bajarayotgan sport mashg'ulotiga, ishiga ongli, ijobiy munosabatda bo'lishidir. Agar sportchi eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga yordam beruvchi qulay usullarni qidirs va buning uchun uzluksiz ravishda tanlangan mashqlar ustida ishlasa, unda individual uslub yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun individual uslub mohir sportchilarda juda aniq namoyon bo'ladi. Demak, individual uslub sportchida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u ta'lim va tarbiya jarayonida tarkib topadi. Bu ham kreativ tafakkurning o'ziga xos qismini tashkil qiladi.

Jismoniy sifatlar va harakat malakalari hamda ko'nikmalarini rivojlantirishni an'anaviy jismoniy tarbiya orqali hal qilish murakkabdir. Shuning uchun ham bunga kreativ tafakkur orqali yondashish zarur. Bunda jismoniy sifatlarni mukammal bajarish avtomatlashgan ko'rinishga o'tadi. Shu orqali sport mutaxassisi o'zining jismoniy imkoniyatlarini to'liq ifoda qiladi.

Xulosa: Harbiy jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish – bu davlat mudofaasi salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim vazafalardan biridir. Mutaxassislarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish hamda harbiy sohaga innovatsiyalarni joriy etish orqali yuqori samaraga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари туғрисида” ги ПФ-5924-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни 2025 йилгача ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ / Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон Фармонига 1-ИЛОВА/.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида” ги ПК-4623-сон қарори.

4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish va olib borish bo'yicha qo'llanma O'R M V 333-sonli buyrug'i 2020yil 7-may.

5. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. Monografiya. Toshkent.: O'zDJTI. 2005, - 235 b.

6. Гаппаров З.Г. Спортивная психология / Психология личности в спорте: учебник / З.Г.Гаппаров: ООО «Мехридарье». -Т., 2009. - 312 с.



7.Хамраев И.Т. Жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларини тайёрлашнинг узига хос хусусиятлари / И.Т.Хамраев // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - 2018.№ 3. -Б. 234-238.

8.Якубов Ф.М. Жисмоний тарбия ва спорт мутахассислари тафаккур тарзини ривожлантириш услубларини такомиллаштириш // Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришнинг фалсафий, ҳуқуқий ва социологик муаммолари: Республика илмий-амалий анжуман. – Чирчиқ, 2020. – Б. 72-73.

9. интернет тармоғи [https:// olamsport.com](https://olamsport.com).